

## HUDUDLARDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH FAROVONLIK DARAJASINING OMILI

***Numanova Madina Latif qizi***

*TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”  
ilmiy-tadqiqot markazi, stajyor-tadqiqotchi*

Moliyaviy savodxonlik - bu o‘z moliyansini samarali boshqarish, byudjetlar, investitsiyalar va kelajakni rejalashtirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu kontseptsiyani bo‘yicha juda ko‘p yondashuvlar mavjud.

A.Bogdashevskiyning fikricha, bu masalani o‘rganishga kompleks yondashuvning yo‘qligi, uning mazmunida ko‘plab kelishmovchiliklarning mavjudligi, tadqiqot natijalarining izohlanmaganligi natijasida yuzaga keladi[1].

Ilmsizlik, aholining yetarli darajada ma‘lumotga ega emasligi, o‘zining haq-huquqlarini yaxshi bilmasligi, shu tufayli aldov va firibgarlikga duch kelishlari hozirda dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bu narsa yanada takomillashganligi bois moliyaviy xizmatlarning ishonarli yoki ishonarsiz manbalardan taklif etilayotganligini aniqlash imkoniyati juda murakkablashgan.

Moliyaviy savodxonlik aholi farovonligiga bevosita ta‘sir qiladi, chunki u odamlarga o‘z mablag‘larini samarali boshqarish imkonini beradi. Moliyaviy tamoyillar bo‘yicha bilimga ega bo‘lgan odamlar o‘z daromadlarini oqilona boshqarishlari, qarzlardan qochishlari, muvaffaqiyatli sarmoya kiritishlari va o‘zlari va oilalari uchun moliyaviy barqarorlikni yaratishlari mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda aholi savodxonligini rivojlantirishni ustuvor sohalari quyidagilardan iborat:

- pensiya sug‘urtasi;
- kreditlash;
- aholi jamg‘armasi va investitsiyalari.

Moliyaviy xizmatlar sohasidagi texnik taraqqiyot pul harakatini tezlashtiruvchi elektron mahsulotlar yaratilishiga olib kelmoqda. Bu mahsulotlar banklarning kredit va oylik kartochkalarini keng qo‘llanilishiga olib keldi[2].

Moliyaviy savodxonlikning pastligi bilan bog‘liq asosiy muammolardan ba‘zilari (1-rasm):

*Qarz intizomlarini tushunmaslik.* Qarzni boshqarish tamoyillarini tushunmaslik qarz va moliyaviy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

*Past investitsion faollik.* Investitsiyalar to‘g‘risida bilimning yetishmasligi kapitalning o‘sishi va ishonchli moliyaviy zaxiralarni shakllantirish imkoniyatlarini boy berishiga olib kelishi mumkin.

*Samarasiz byudjetlashtirish.* Byudjet va resurslarni taqsimlash qobiliyatining yetarli emasligi qoniqarsiz turmush darajasiga olib kelishi mumkin.



**1-rasm. Moliyaviy savodxonlikning pastligi bilan bog‘liq asosiy muammolar**

*Manba:* Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

*Bank xizmatlaridan noto‘g‘ri foydalanish.* Bank mahsulotlarini tanlash va ulardan foydalanish tajribasining yetishmasligi qo‘shimcha xarajatlar va pul yo‘qotilishiga olib keladi.

*Sug‘urta xizmatlari bo‘yicha savodxonlikni yetarlicha darajada emasligi.* Sug‘urta xizmatlari bo‘yicha savodxonlikni yetarli darajada emasligi odamlarni kasallik yoki tabiiy ofatlar kabi moliyaviy xavf-xatarlarga qarshi himoyasiz qoldirishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish ta‘lim va o‘quv resurslaridan foydalanish orqali moliyaviy savodxonlikni oshirishni talab qiladi.

Hududlarda moliyaviy savodxonlik muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin:

Ta‘lim olish imkoniyati cheklanganligi. Ba‘zi hududlarda maktablar, universitetlar yoki ta‘lim dasturlari yo‘qligi sababli sifatli moliyaviy ta‘lim olish imkoniyati cheklangan.

Iqtisodiy beqarorlik. Iqtisodiy barqarorlik darajasi past bo‘lgan hududlar cheklangan resurslarni samarali boshqarish uchun moliyaviy ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyoj ortishi mumkin.

Madaniy va til to‘siqlari. Mintaqalardagi madaniyatlar va tillarning xilma-xilligi moliyaviy savodxonlik bo‘yicha o‘quv materiallarini moslashtirishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Moliyaviy xizmatlarning yetishmasligi. Turli xil moliyaviy xizmatlardan, masalan, bank va investitsiya mahsulotlaridan foydalana olmaslik moliyaviy ko‘nikmalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Qishloq aholisining iqtisodiy ta’lim olish bo’yicha imkoniyatlari yetarli darajda emasligi. Qishloq joylarda iqtisodiy faoliyat shakllari va ta’lim olish imkoniyati cheklanganligi sababli moliyaviy savodxonlik kamroq bo’lishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish davlat, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari tomonidan hududiy ehtiyojlarning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dastur va resurslarni yaratishga harakat qilishni talab etadi.

Hududlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- yoshlarda asosiy moliyaviy ko’nikmalarni rivojlantirish uchun maktab va universitet dasturlariga moliyaviy ta’limni joriy etish;

- kattalar uchun o’quv dasturlari va tadbirlarini, jumladan, moliyaviy menejment bo’yicha seminarlar, vebinarlar va kurslarni yaratish;

- moliyaviy savodxonlikning asosiy tamoyillarini ommalashtirish uchun ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot kampaniyalarini o’tkazish;

- davlat va nodavlat tashkilotlari orqali moliyaviy rejalashtirish va qarzlarni boshqarish sohasida qulay maslahat va yordam ko’rsatish;

- ta’lim dasturlarini yaratish va moliyaviy savodxonlikni qo’llab-quvvatlash uchun resurslar bilan ta’minlash uchun korxonalar va banklar bilan hamkorlik qilish.

- moliyaviy klublar va jamoalar kabi moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan mahalliy tashabbuslarni qo’llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlarning umumiy ta’siri moliyaviy savodxonligi yaxshilangan axborotlashgan jamiyatni yaratishga yordam beradi.

#### ***Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:***

1. Богдашевский, А. Основы финансовой грамотности: краткий курс / А. Богдашевский. – Москва: Альпина публишер, 2019. – 304 с.

2. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o’quv qo’llanma / A.V. Vaxabov, Sh.A. Toshmatov, N.X. Haydarov, A.V.Vaxobov. — Toshkent: Baktria press, 2013, 288 b.

## **MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

***Safarov Radjabboy Eshmuhammadovich***  
*Farg’ona soliq texnikumi yetakchi o’qituvchisi*

Davlatimizda Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida «O’zbekiston — 2030» strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston — 2030» strategiyasi to’g’risidagi PF-158-sonli farmoni 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan bo’lib, u quyidagi asosiy g’oyalarni o’z ichiga oladi: